

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAMIDOVA MUBORAK HAFIZOVNA**

**FRANSUZ HAMDA O‘ZBEK TILLARIDA METEOROLOGIK LEKSIKA  
TIZIMI VA TARKIBI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**UDK: 81'373.225(=133.1=512.133): 81'255**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)**

**Contents of the dissertation for a Doctor of Science degree (DSc)**

**Xamidova Muborak Hafizovna**

Fransuz hamda o'zbek tillarida meteorologik leksika tizimi va tarkibi..... 3

**Хамидова Муборак Хафизовна**

Система и состав метеорологической лексики во французском и узбекском языках ..... 29

**Khamidova Muborak Hafizovna**

System and Structure of Meteorological Vocabulary in French and Uzbek Languages..... 57

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of publications ..... 62

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAMIDOVA MUBORAK HAFIZOVNA**

**FRANSUZ HAMDA O‘ZBEK TILLARIDA METEOROLOGIK LEKSIKA  
TIZIMI VA TARKIBI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2024**

**Falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.3.DSc/Fil1661 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Rasmiy opponentlar:**

**Karshibayeva Uljan Davirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Shirnova Raima Xakimovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «20» aprel soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (427 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «05» aprel kuni tarqatildi.

(2024-yil «05» aprel dagi 24-01 - raqamli reyestr bayonnomasi.)



**D.S.Urayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**Z.I.Rasulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

**F.M.Xajiyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, dotsent

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligining so‘nggi taraqqiyotida kommunikologiya, diskursologiya, strukturologiya, leksikologiya va leksikografiya masalalari bilan bog‘liq muammolarning qiyosiy-tipologik, lingvokognitiv, lingvomadaniy, lingvopragmatik xususiyatlarini o‘rganish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, turli til tizimlarida meteonimlar – ob-havoni ifodalovchi so‘zlar, ular o‘zida har bir xalqning tabiat hodisalari, ob-havo muhiti bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlarini, bilim va tajribalarini ularning yashash sharoiti, geografik joylashuv o‘rni, milliy an‘analari, mavsumiy marosimlari bilan bog‘liqlikda ifodalab kelishini qiyosiy o‘rganish muhimligi bilan belgilanadi. Meteonimlarning til bilan nutqdagi o‘rni, shakllanish asoslari, uslubiy qo‘llanishi, yasaliş xususiyatlari, tarixiy va zamonaviy qatlamini aniqlashga oid tadqiqotlar til tarixini, uning taraqqiyot omillari, boyish manbalarini ochishda, ijtimoiy ahamiyatini belgilashda va ilmiy asoslashda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida dunyo xalqlari leksikoni va onomastikasi tadqiqi, ularni qiyosiy aspektda o‘rganish, struktur-semantik, diskurs sharoitida namoyon bo‘ladigan kommunikativ-pragmatik xususiyatlari, turli tillar va madaniyatlardagi meteorologik atamalarining tahlili borasida keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilgan. Turli leksik va onomastik birliklar qatorida meteonimlarning tilda leksik-semantik, milliy-madaniy, nutqda lingvostilistik, paradigmatic, intensivlik xususiyatlarini, turli tizimli tillar doirasida nomlanishidagi umumiy va differensial jihatlarini, tarjima jarayonida aslyiat-u o‘girma o‘rtasidagi ekvivalentlik hamda adekvatlik parametrlarini aniqlash chog‘ishtirma tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir. Shu qatorda bir-biriga noqardosh bo‘lgan fransuz va o‘zbek tillaridagi meteorologik tizimga oid so‘zlarning, ular asosida shakllangan ibora va birikmalarning leksik-semantik, morfologik, derivatsion, stilistik xususiyatlarini, matn pragmatik mazmuni shakllanishidagi o‘rnini chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan aniqlash turli tizimli tillar o‘rtasida ham yaqinliklar bo‘lishini ilmiy asoslashga imkon yaratadi.

“Hozirgi vaqtda bizning mintaqamiz mamlakatlari global isish, ekologik muvozanat buzilishining anomal ob-havo sharoitlari, tez-tez yuz berayotgan qurg‘oqchilik va chang bo‘ronlari, yerlarning shiddat bilan degradatsiyaga uchrashi va cho‘llanishi, bioxilma-xillikning yo‘qolishi ko‘rinishida namoyon bo‘layotgan jiddiy tahdidlarini o‘zida to‘liq his etmoqda”,<sup>1</sup> bu esa ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishni talab etadi. Buning natijasida tilshunoslar ham meteorologiyaga oid leksik qatlamning kelib chiqishi, strukturaviy-semantik xususiyatlarini chuqur nazariy aspektda ochish orqali xalqimizning bu borada orttirgan tajribasi jahon andozalari darajasida ekanini asoslashlari lozim. Mana shu

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2023 йил 18 октябрь куни Пекин шаҳрида “Бир макон, бир йўл” халқаро форумининг очилиш маросимида ҳамда “Инсон ва табиат уйғунлиги йўлида “Яшил ипак йўлини” биргаликда барпо этиш” мавзусидаги ялпи йиғилишида сўзлаган нутқидан. // Халқ сўзи, 2023 йил 18 октябрь. – № 258 (6952).

maqsadda tilimizdagi meteonimlarning lison va nutqdagi o‘rnini, kelib chiqish asoslarini, xalq tilidan adabiy tilga o‘tishini, etnolingvistik, lingvomadaniy belgilarini aniqlash, leksikografik manbalarini yaratish, leksik-semantik xususiyatlariga ko‘ra tasnifi, tahlili va tadqiqini amalga oshirish, nutq uslublarida qo‘llanishi bilan bog‘liq lingvostilistik alomatlarini yoritishga oid tadqiqotlarning milliy til tarixini o‘rganish, uning ijtimoiy ahamiyatini belgilash, leksikologiya, onomastika, lingvopoetika sohalarini rivojlantirish uchun juda zarur va dolzarb sanaladi. Meteonimlarning leksik-semantik, morfologik, stilistik, paradigmatic xususiyatlarini ochib berishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar jahon xalqlari tilining tipologik va differensial xususiyatlarini aniqlash barobarida milliy-lisoniy belgilarini bilib olishga keng yo‘l ochadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasi xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Tilshunoslikda lingvopragmatika nazariyasi, uning lisoniy maqomini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, Oxford University Language (Buyuk Britaniya); California State University (AQSh); Vrije Universiteit Amsterdam (Niderlandiya); Stroudsburg Association of Computational Linguistics (Fransiya); Shanghai Foreign Languages University (Xitoy); New Bulgarian University (Bolgariya); Dublin City University (Irlandiya); University of Toronto (Kanada); Moskva davlat universiteti, Moskva davlat lingvistika universiteti, Sankt-Peterburg, Tomsk,

---

<sup>2</sup>Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://www.disercat.com>, [www.cheloveknauk.com](http://www.cheloveknauk.com), <http://studfile.net>, [www.ilingran.ru/scholars/rumy](http://www.ilingran.ru/scholars/rumy), <http://dereksiz.org/leksiko-seman>, [www.dslib.net](http://www.dslib.net), <https://ru.m.wikipedia.org/wiki>, <https://cyberleninka.ru>, <http://philology.snauka.ru>, [www.google.scholar.com](http://www.google.scholar.com), <https://www.academia.edu>, [www.philology.ru](http://www.philology.ru), <https://periodicos.sbu.unicamp.br>, [https://m.dissforall.com/\\_catalog/t13/\\_s](https://m.dissforall.com/_catalog/t13/_s). va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

Yolgograd, Ufa, Qozon davlat universitetlari (Rossiya); Kiyev davlat universiteti (Ukraina), Baku davlat universiteti (Ozarbayjon), shuningdek, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Buxoro davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Dunyo tilshunosligida meteorologik leksikaga aloqador so‘zlarning struktur-semantik xususiyatlarini yoritishga asoslangan tadqiqotlar bir qator ilmiy natijalarning yuzaga kelishi uchun zamin bo‘lgan. Hozirgi kunda matn, pragmatika va diskurs tadqiqiga doir: “Text Production. Science of Composition”, “Pragmatics // Discourse”, “Phrase Structure”, “Discourse and Process” kabi internet sahifalarida hamda elektron jurnallar faoliyat yuritib kelmoqda.

Bugungi kunda meteorologik tizimga oid so‘zlarning xususiyatlari, ularning tasnifi jarayonini o‘rganish, morfologik xususiyatlari, matn pragmatik mazmuni shakllanishidagi o‘rnini belgilash kabi masalalarning chog‘ishtirma tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinishiga alohida e‘tibor qaratilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Keyingi yillarda jahon tilshunoslari tomonidan ob-havoni bildiruvchi leksik birliklarning til va nutqdagi o‘rni masalasiga alohida diqqat qaratilib kelinmoqda. Tilshunos Devid Robisho turli tillar va madaniyatlardagi meteorologik atamalarning tahlilini ko‘rib chiqqan. Yana bir ingliz tilshunosi Syuzanna Hyunston tomonidan o‘z, ya‘ni ona tilida so‘zlashuvchilar hamda o‘zga ona tili bo‘lmagan tilda so‘zlashuvchilarning nutqlarida ob-havo atamalaridan qanday foydalanish xususida mulohaza yuritilgan. Fransuz tilshunosi Jan-Mishel Adam meteorologik atamalarning grammatik qurilishi va kundalik hayotda qo‘llanilishini o‘rgangan. Rus tilshunosi Vladimir Klimenko ham ob-havo atamalarining til va muloqotga ta‘sirini tadqiq qilgan.

Usbu dissertatsiyaning nazariy asoslarini shakllantirishda L.B.Danilova, A.A.Pixteyeva, G.I.Ovsyannikov, L.Y.Sherbakova, O.A.Mogila, V.M.Kasyanova, V.P.Vasilyev, A.G.Lavrentyeva, L.P.Suprun-Belyevich, O.B.Poyda, V.B.Djafarov, O.A.Makusheva, M.M.Kondratyenko, T.G.Rabyenko, M.A.Lazaryeva, I.N.Suspisina, N.V.Anisimova, Y.G.Melnikova, N.V.Xoxlova, Y.V.Kuznesova, O.S.Fisyenko, N.M.Chudakova, A.A.Chemercheva, Y.B.Ryabix, A.G.Iskandarov, Lyu Yanchunlarning monografik tadqiqotlari umummetodologik asos vazifasini o‘tadi.<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Данилова Л.В. Метеорологическая лексика тюркских языков (Сравнительноисторическое освещение). Автореф. дисс ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 17 с.; Пыхтеева А.А. Наименования явлений природы в говорах Среднего Прииртышья: Дис. ... канд. филол. наук. – Л., 1979. – 194 с.; Овсянников Г.И. Семантико-синтаксическая характеристика метеонимов в современном английском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1982. – 22 с.; Щербаква Л.Е. Формирование русской метеорологической лексики (наименования осадков, состояний погоды): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1983. – 17 с.; Могила О.А. Метеорологическая лексика украинских говоров (Лексико-семантическая, ареальная и генетическая характеристика): Дисс. ... канд. филол. наук. – Киев, 1984. – 332 с.; Касьянова В.М. Русская метеорологическая лексика: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1985. – 16 с.; Васильев В.П. Русская метеорологическая лексика Кузбасса (значение, таксономия и функционирование слов): Дисс. ... канд. филол. наук. – Кемерово, 1986. – 297 с.; Лаврентьева А.Г. Названия дождей и облаков в псковских говорах (Семантико-структурный и ареальный анализ): Дисс.... канд. филол. наук. – Л., 1987. – 250 с.; Супрун-Белевич Л.Р. Метеорологическая лексика в славянских языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Киев, 1987. – 26 с.; Пойда О.Б. Лексико-семантические связи слов, называющих явления природы в брянских

S.P.Xromov va L.I.Mamontovanning “Meteorologik lug‘at”, I.Z.Prox va boshqalarning “Shamollar lug‘ati” ham ushbu tadqiqot uchun materialni tanlash uchun manba sifatida xizmat qila oladi.<sup>4</sup>

G.S.Dorjiyeva fransuz anemonimlarining xalqaro onomastik terminologiyadagi o‘rniga diqqat qaratgan.<sup>5</sup>

D.Vaqqosova o‘zbek tilidagi anemonimlarning semantik tahlilini, A.Aliqulov yel-yog‘in lug‘aviy-ma‘noviy guruhi tizimi, qo‘llanilishi va leksikografik talqinini tadqiq qilishgan<sup>6</sup>. Ammo meteorologik birliklar (meteonimlar)ning leksik-semantik, funksional-uslubiy, paradigmatic xususiyatlari turli tizimli (jumladan, fransuz va o‘zbek) tillar kesimida qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil va tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining “Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarni o‘rganishni yanada rivojlantirishning afzalliklari” mavzuidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** fransuz va o‘zbek tillaridagi meteorologik leksikaning lisoniy tizimdagi o‘rni, shakllanish asoslari, nutqiy voqelanishidagi

---

говорах: Дисс.... канд. филол. наук. – Л., 1988. – 233 с.; Джафаров В.Б. Метеорологические термины в азербайджанском языке: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Баку, 1990; Макушева О.А. Метеорологическая лексика в орловских говорах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Орел, 1994. – 28 с.; Кондратенко М.М. Лексика народной метеорологии в славянских языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1995. – 268 с.; Рабенко Т.Г. Лексико-семантические особенности диалектной и литературной разговорной речи (на материале межчастеречного семантического поля «погода»): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Кемерово: Кузбассвузиздат, 1998. – 18 с.; Лазарева М.А. Сопоставительный анализ метеорологической лексики английского и русского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2000. – 199 с.; Суспицына И.Н. Метеорологическая лексика в говорах Русского Севера: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2000. – 20 с.; Анисимова Н.В. Особенности выражения чувственного, рационального и прагматического компонентов в единицах научных и художественных текстов (На материале денотативного класса «облака»): Дисс. ... канд. филол. наук. – Северодвинск, 2003. – 213 с.; Мельникова Е.Г. Парадигматические отношения в лексике (на материале наименований погоды в псковских говорах): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тверь, 2004. – 22 с.; Хохлова Н.В. Лексическое значение и внутренняя форма как способы концептуализации мира природы (на материале говоров Архангельской области): Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Архангельск, 2004; Кузнецова Е.В. Мотивационный потенциал диалектного слова (на материале метеорологической лексики донских говоров): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2005; Фисенко О.С. Концепт гроза в русском языковом сознании: Дисс.... канд. филол. наук. – Воронеж, 2005. – 187 с.; Чудакова Н.М. Концептуальная область «Неживая природа» как источник метафорической экспансии в дискурсе российских средств массовой информации (2000-2004 гг.): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2005; Чемерчева А.А. Народная метеорология: поверья, обряды и терминология (этнолингвистический аспект): Дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2006. – 206 с.; Рябых Е.Б. Метафоризация концептов природных явлений в поэтическом дискурсе (на материале русского и немецкого языков): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тамбов, 2006; Искандаров А.Г. Метеорологическая лексика башкирского языка: Дисс.... канд. филол. наук. – Уфа, 2009. – 222 с.; Лю Яньчунь. Метеорологическая лексика и фразеология в русском и китайском языках: лингвокультурологический аспект: Дисс.... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – 243 с.

<sup>4</sup> Словарь метеорологической лексики орловских говоров. – Орёл, 1997. – 106 с.; Хромов С.П., Мамонтова Л.И. Метеорологический словарь. – Л., 1974.

<sup>5</sup> Доржиева Г.С. Французские анемонимы в международной ономастической терминологии. (Топонимические чтения. 2). – Улан-Удэ, 2017. – С.86-93.

<sup>6</sup> Ваққосова Д.В. Ўзбек тилидаги анемонимларнинг семантик таҳлили: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Фарғона, 2005. – 22 б.

<sup>6</sup> Алиқуллов А.Ғ. “Ел-ёгин” луғавий-маъновий гуруҳи (тизими, қўлланилиши ва лексикографик талқини): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 19 б.



xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish orqali taqqoslanadigan tillarning ushbu birliklari o'rtasidagi nominatsiya, semantizatsiya, ichki shakl va assotsiativ-majoziy salohiyat jihatlarida o'xshashlik va farqlarni aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

fransuz va o'zbek tillaridagi meteonimlarning til tizimida tutgan o'rnini, ob-havo hodisalari nomlarining makro va mikromaydonini, ulaning ikkala xalq tilshunosligida o'rganilishining nazariy asoslarini va darajasini aniqlash;

fransuz va o'zbek tillaridagi meteonimlarni "lug'at", "semantik soha", "konseptsiya", "olamning lingvistik manzarasi", "lingvistik shaxs" nuqtai nazardan ochish;

ob-havo hodisalarini bildiruvchi fransuz va o'zbek meteorologik lug'atini va frazeologiyasini tasniflash; ularning ichki shaklini tahlil qilish, qiyosiy tillarda semantik jihatdan obrazli ifodalanishidagi o'xshashlik va farqlarni dalillash;

taqqoslanayotgan tillardagi meteonimlar va meteonim komponentli frazeologik birliklarni ularning semantikasi, morfologik tarkibi, kelib chiqish manbasi, o'zgaruvchan turlari va semantik ekvivalentligi nuqtai nazaridan belgilab ko'rsatish;

fransuz hamda o'zbek meteonimlarini vaqtga, xalq taqvimiga munosabatiga ko'ra leksik-semantik tomondan tasniflash va tavsiflash orqali nutqda namoyon bo'lish shakllarini asoslash;

meteonimlarning lingvostilistik, paradigmatic va sintagmatik xususiyatlarini, obrazli va metaforik imkoniyatlarini, tabuga aloqadorlik, genderlik, intensivlik belgilarini isbotlash.

**Tadqiqotning obyekt**i sifatida fransuz va o'zbek tillarining izohli, frazeologik, tematik lug'atlari, fransuzcha-o'zbekcha va o'zbekcha-fransuzcha tarjima lug'atlari, ensiklopedik tipdagi lug'atlar, shuningdek, shu ikki tilda yaratilgan badiiy asarlardagi meteonimlar tanlangan.

**Tadqiqotning predmet**ini fransuz va o'zbek tillaridagi meteonimlarning shakliy, ma'noviy, morfologik, leksik-semantik, derivatsion, lingvostilistik, pragmatik xususiyatlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada eksperimental, analitik, semantik ma'no, tarkibiy tahlil, qiyosiy-tipologik, kuzatish, tavsiflash, taqqoslash va qarama-qarshilik, umumlashtirish, tasniflash, etimologik va lingvomadaniy tahlil kabi lingvistik tadqiqotning maxsus usullaridan foydalanildi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

fransuz va o'zbek tillaridagi meteonimlarning sistem-struktur jihatlari leksik-semantik, lingvostilistik, lingvomadaniy xususiyatlarni ifodalovchi, turlarga ishora qiluvchi, funksional belgilarni voqelantiruvchi omillar ta'sirida shakllanganligi va insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligi dalillangan;

og'zaki va yozma adabiyotda meteonimlarning poetik ifoda vositalari, ijodkor uslubi doirasidagi transformatsiyasi, badiiy-estetik yondashuv tamoyillari, meteonimlarning funktsionalligi, qahramon ruhiyatini aks ettirish, asarning g'oyasini yoritib berish kabi kompozitsion vazifalarni bajarishda namoyon bo'lishi isbotlangan;

qiyoslanayotgan tillar tizimi va tarkibi kengligida meteonimlar shakllanishining leksik-semantik hamda mantiqiy-grammatik qatlamlari o‘zaro munosabati fikr yoki propozitsiyaning kommunikativ markazi va konseptual-kognitiv manzarasini tasvirlashi aniqlangan;

chog‘ishtirilayotgan tillar meteorologik leksik birliklar tizimiga oid derivatsion modellar guruhlarga ajratilib, ularning til sathlarida lisoniy voqelanishini ta‘minlovchi omillarning konseptual negizi ishlab chiqilgan;

turli tizimga aloqador fransuz va o‘zbek tillaridagi meteonimlar, unga daxldor kategoriyalarning lingvomadaniy mazmun-mohiyati hamda nominatsion, motivatsion, kommunikativ, kognitiv-pragmatik, lingvostilistik, genderlik, intensivlik xususiyatlari qiyoslanayotgan tillarda yadro va periferiyani tashkil qiluvchi freymlarning ramziy-timsoliy obrazlari bilan semantik uyg‘unligini tavsiflashga xizmat qilishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

fransuz va o‘zbek meteonimlarining leksik-semantik mohiyati, milliy-lisoniy, uslubiy xususiyatlari har ikkala xalqning yashash tabiiy-iqlim sharoiti, tili, madaniyati, milliy mentaliteti, dunyoqarashi, ruhiyati, e‘tiqodiy tushunchalari, o‘ziga xos urf-odat va marosimlari, tafakkur tarzi bilan chambarchas bog‘liqligi isbotlangan;

meteonimlarning leksik birlik sifatidagi xususiyatlari lingvokulturologik, lingvostilistik, lingvopoetik, pragmatik asosda aniqlangan;

fransuz va o‘zbek meteonimlari bo‘yicha to‘plangan materiallar, umumlashma va xulosalar hozirgi chog‘ishtirma tilshunosligimiz uchun muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishi, “Leksikologiya”, “Matn lingvistikasi”, “Stilistika”, “O‘zbek tili tarixi” kabi fanlardan yaratilajak yangi darslik va qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada qo‘llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma‘lumotlarning ilmiy va badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar eksperimental, analitik, semantik ma‘no, tarkibiy tahlil, qiyosiy-tipologik, kuzatish, tavsiflash, taqqoslash va qarama-qarshilik, umumlashtirish, tasniflash, etimologik va lingvomadaniy tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fransuz va o‘zbek meteonimlarining tarixiy-etimologik, leksik-semantik, funksional-stilistik xususiyatlari bo‘yicha chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan har bir til tizimidagi meteonimlariga xos lingvistik belgi-xususiyatlarni chog‘ishtirma aniqlashda foydalanish mumkinligi hamda umumlashtirilgan ilmiy-nazariy manbalar kelgusi tadqiqotlar uchun muayyan darajada ilmiy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati uning natijalaridan umumiy tilshunoslik, zamonaviy fransuz va o‘zbek tillari, qiyosiy leksikologiya va frazeologiya, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, stilistika va boshqalar bo‘yicha kurslarni ishlab chiqish va o‘qitishda, fransuz tilini o‘rganish amaliyotida foydalanish imkoniyatidan iborat. Fransuz tilini xorijiy til sifatida, madaniyatlararo

muloqotni o'rgatish yoki tarjimalar qilish, shuningdek, fransuzcha-o'zbekcha va o'zbekcha-fransuzcha qiyosiy lug'atlar, leksikologiya, frazeologiya bo'yicha o'quv qo'llanmalar, maxsus kurslar tuzish amaliyotida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Fransuz hamda o'zbek tillarida meteorologik leksika tizimi va tarkibi tadqiqini amalga oshirish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

fransuz va o'zbek tillaridagi meteonimlarning sistem-struktur jihatlarini leksik-semantik, lingvostilistik, lingvomadaniy xususiyatlarni ifodalovchi, turlarga ishora qiluvchi, funktsional belgilarni ifodalovchi omillar ta'sirida shakllanganligi va insoniyat sivilizatsiyasi bosqichlari bilan parallel ravishda yuzaga kelganligiga oid nazariy xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2020-2021-yillarda bajarilgan A-OT-2021-2-raqamli "Tibbiyotga oid atamalar elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 15-noyabrdagi №01-4468-son ma'lumotnomasi). Natijada meteonimlarning leksik birlik sifatidagi xususiyatlari lingvokulturologik, lingvostilistik, lingvopoetik, pragmatik asosda aniqlashga xizmat qilgan;

og'zaki va yozma adabiyotda meteonimlarning poetik tamoyillari badiiy ifoda vositalari, ijodkor uslubi doirasidagi transformatsiyasi, badiiy-estetik qonuniyatlar, yondashuv tamoyillari, funktsionalligi, qahramon ruhiyatini aks ettirish, asarning g'oyasini yoritib berish kabi kompozitsion vazifalarni bajarishda namoyon bo'lishiga oid nazariy xulosalardan Grenobl Alp universiteti huzuridagi Fransuz tilini o'rgatish universitet markazining "*Centre universitaire d'études françaises (CUEF)*" ilmiy tadqiqotlar markazi tomonidan amalga oshirilgan LIDILEM (*Linguistique et didactique des langues étrangères et maternelles – Tilshunoslik hamda ona tili va xorijiy tillar didaktikasi*) xalqaro loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 2-noyabrdagi №04-4167-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha doirasida tashkil qilingan DéLiCorTal (*DEscriptions LInguistiques, CORpus, TAL – Lingvistik tavsiflar, til korpusi va zamonaviy dasturlash tillari*) bo'yicha ilmiy seminarlarda va lingvistik tarmoqlar (*terminologiya, sintaksis, semantika, pragmatika*), til korpusi hamda tilni avtomatik qayta ishlash tizimlari bo'yicha xalqaro hamkorlikdagi tadqiqotlarda xorijiy tilshunoslik sohasining turli yo'nalishlaridagi mutaxassisleri uchun ilmiy tadqiqot mavzusi doirasida ma'ruzalar bilan samarali taqdimotlar olib borish imkonini bergan;

qiyoslanayotgan tillar tizimi va tarkibi kengligida meteonimlar shakllanishining leksik-semantik hamda mantiqiy-grammatik qatlamlari o'zaro munosabati fikr yoki propozitsiyaning kommunikativ markazi va konseptual-kognitiv manzarasini tasvirlashiga doir xulosa va natijalardan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-sonli buyrug'iga asosan berilgan №438377 raqamli nashr guvohnomasi asosida 5611500 – Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha: fransuz tili) mutaxassisligi talabalari uchun "Madaniyatlararo muloqot" nomli darslikni yaratishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 27-noyabrdagi №02/4705-son ma'lumotnomasi). Natijada maxsus va professional

leksikaning til va nutqdagi o'rni, qo'llanishi, tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha fanning amaliy qismi boyitilgan. Shuningdek, tilshunoslik va tarjimashunoslikning o'zaro integratsiyasiga doir nazariy hamda faktik materiallar orqali o'quv adabiyoti mazmuni takomillashtirilgan;

chog'ishtirilayotgan tillar meteorologik birliklar tizimiga oid derivatsion modellar guruhlariga ajratilib, ularning til sathlarida lisoniy voqelanishini ta'minlovchi omillarning konseptual negizi ishlab chiqilganligiga oid xulosa va natijalardan Toshkent Fransuz Alyansi tomonidan muntazam o'tkazilib boriladigan "Club de Conversation" tadbirlar dasturlariga oid mashg'ulotlarda foydalanilgan (NNT Toshkent Fransuz Alyansining 2023-yil 8-noyabrdagi №21-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur yo'nalishdagi ilmiy xulosalar, tavsiyalar va takliflar ushbu tadbir dasturini boyitishga hamda seminarning ilmiy qimmati oshishiga xizmat qilgan;

turli tizimga aloqador fransuz va o'zbek tillaridagi meteonimlar, unga daxldor kategoriyalarning lingvomadaniy mazmun-mohiyati hamda nominatsion, motivatsion, kommunikativ, kognitiv-pragmatik, lingvostilistik, genderlik, intensivlik xususiyatlari qiyoslanayotgan tillarda yadro va periferiyani tashkil qiluvchi freymlarning ramziy-timsoliy obrazlari bilan semantik uyg'unligini tavsiflashga xizmat qilishi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi "Buxoro" telekanalining "Menga so'z bering", "Assalom, Buxoro", "Buxoro" radiosining "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 31-oktabrdagi №02-09-308-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu ko'rsatuv va radioeshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ilmiy-ommabopligini ta'minlashga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 6 ta respublika va 3 ta xorijiy ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, ulardan 9 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 226 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, metodlari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot

natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, aprobatsiyasi, joriylanishi, e'lon qilinishi, dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Fransuz hamda o‘zbek til tizimida meteorologik leksikaning o‘rni va shakllanish asoslari”** deb nomlangan. Uning ilk fasli *“Tilda meteorologik tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar maydoni”* deb atalgan. Inson o‘z atrofidagi dunyoni, olam manzarasini idrok etishi va bilishi jarayonida nafaqat ob-havo hodisalarini o‘rganishga, balki ularni nomlash, tavsiflash va baholashga ham harakat qildi. Natijada bu bilimlarning barchasi maxsus leksik birliklar – meteonimlar yordamida tabiiy tilda aks eta bordi.

“Meteonim” deganda, atmosferaning holati va tuzilishini, atmosfera va yer yuzasidagi issiqlik va namlik aylanishi, issiqlik rejimini, atmosferaning qismlari harakatini, shuningdek, atmosferadagi elektr, akustik va optik hodisalarni ifodalovchi so‘zlar tushuniladi. Ular “meteronimlar” deb ham yuritiladi.

Meteonimlar, odatda, “meteorologiya” fani sohasida keng qo‘llanadi. Meteorologiya atmosferani, iqlimni o‘rganadigan fan nomi bo‘lib, u bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar “meteorologlar” deb yuritiladi. Meteorologlar ob-havo prognozi bilan shug‘ullanishadi. Atmosferada sodir bo‘ladigan turli xil hodisalar: shamollar, siklonlar, antisiklonlar va boshqa shu kabi jarayonlarning mohiyatini tushuntirish meteorologlarning asosiy vazifalaridan biridir.

“Meteor” tushunchasi aslida yunon tilidagi “samoviy va havo hodisasi” ma’nosini anglatuvchi “wttewpov” so‘zidan olingan. U XVII asrda nemis tilida ishlatilgan. XVII-XVIII asrlarda u rus tilida ham keng qo‘llana boshlangan va har qanday ob-havo hodisasini bildirgan. Havo hodisalari yoki meteoritlar havoda paydo bo‘ladigan va birmuncha vaqt tevarak-atrofdan davom etadigan real hodisalar hisoblanadi. Ularni faqat his-tuyg‘u orqali sezish, tushunish mumkin. Ular, odatda, olovli yoki suvlidir ... Masalan, suv meteorlari – tuman, bulut, yomg‘ir, shudring, ayoz, qor, do‘l kabilardir.

“Meteor” so‘zi XIX asrda ko‘rsatilgan ma’noni to‘liq saqlab qoldi. Aytaylik, meteorologiya nuqtai nazaridan, bulutlar “atmosferada to‘xtatilgan (yer yuzasiga yaqin bo‘lmagan) suv bug‘lari kondensatsiyasi mahsulotlari tizimlari – suv tomchilari yoki muz kristallari, yoxud har ikkalasi, ya’ni bulutli elementlardan boshqa narsa emas. Bulutning kattalashishi bilan elementlar va ularning tushish tezligining oshishi bilan ular bulutdan yog‘ingarchilik shaklida tushadi. Aynan shu bulutlilikning mavjudligi keyingi yog‘ingarchilik ehtimoli bilan uzviy bog‘liqdir, bu esa, o‘z navbatida, farqni keltirib chiqaradi.

Odamlar ob-havoni oldindan bilishga uzoq vaqtdan beri qiziqib kelishgan. Bu borada har bir xalqning yiqqan tajribasi bor. Shu jarayonda har bir xalq tilida meteonimlar ham shakllangan. Dastlab bu jarayon stixiyali tarzda kechgan bo‘lsa, bora-bora ilmiy mohiyat kasb etgan. Xususan, XIX asrga kelib, meteorologiya alohida fan sifatida tan olindi. Masalan, Rossiyada birinchi marta XVII asrda ob-havoni o‘rgana boshlaganlar. XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab meteorologik stansiyalar tarmog‘i kengaytirilgan.

*Klimatologiya* – iqlim haqidagi fan nomi bo‘lib, o‘zbek tilida “iqlimshunoslik” deb yuritiladi. Unga oid so‘zlar *klimatonimlar* hisoblanadi. Klimatologiya geografik fanlardan biridir, chunki klimatologiya hududlarning

geografik joylashuviga qarab, unga xos bo'lgan atmosfera sharoitlarining umumiylikini o'rganadi. Klimatologiya meteorologiya bilan chambarchas bog'liq. Chunki iqlim o'zgarishiga olib keladigan tabiiy va ijtimoiy omillarni, unga qishloq xo'jaligi va inson ishlab chiqarish faoliyatining ta'sirini o'rganish klimatologiyaning asosiy vazifalarini tashkil qiladi. Atmosfera jarayonlari bo'ysunadigan umumiy qonunlar asosida iqlim qonunlarini tushunish mumkin bo'lgani uchun iqlimning har xil turlari paydo bo'lishining sabablarini va ularning butun dunyo bo'ylab tarqalishini tahlil qilganda, iqlimshunoslik meteorologiya tushunchalari va qonunlaridan kelib chiqadi.

Tabiiy ofatlar nomini ifodalab keluvchi maxsus leksika "*anemonimlar*" nomi bilan guruhlantiriladi. Anemonim grekcha – "shamol" degani. N.V.Podolskaya "Rus onomastik terminologiyasi lug'ati"da tabiiy hodisa va ofatlar nomini ifodalovchi "anemonim" atamasining bevosita yunoncha "anemos", ya'ni "shamol" so'zidan olinganini qayd etadi.<sup>7</sup> Darhaqiqat, anemonimlar inson hayoti uchun xavf-xavotir soladigan tabiiy hodisalarning nomi hisoblanadi. Anemonimlar tabiiy ofat nomlarini atab kelib, ularning boshqa tabiat hodisalaridan individualligini, o'ziga xos belgilariga ko'ra alohida qayd etilishini (identifikatsiyalanishini) anglatadi. Shamolning tabiiy ofat sifatida mavjud bo'lgan bo'ron, to'fon, dovul singari ko'rinishlari bo'yicha nomlanishi "anemonim" hisoblansa, ularning kuchiga qarab nomlanishi "meteonim" sanaladi.<sup>8</sup> Birgina meteonim shamolning ikkita xususiyatini anglatib kelishi mumkin.

O'zbek meteonimlari atmosfera, uning belgi-xususiyatlari, tabiiy ritmiga doir geografik bilimlar tizimi mavjudligini o'zida namoyon etadi.

Tabiat fasllarining nomlari va belgilari aniq bo'lgani kabi har bir faslga xos tabiiy hodisalarning nomlari ham aniqlangan. Jumladan, *qor, qirov, muz, sovuq, izg'irin* qish fasliga, *xazonrezgi kuzga, pishiqchiliq, garmsel yozga, boychechak va lola* unishi esa bahorga xos hodisalaridir.

Meteonimlar ko'proq tilda ob-havoning holatini, uning bulutlilik, sovuq yoki iliqlik darajasini, atmosferaning ko'rinishini, turli atmosfera hodisalarini anglatuvchi atama va tushunchalardan iborat. Ular orqali tilning o'ziga xos nozikligi, odamlarning tevarak-atrofnii kuzatuvchanligi, olamni bilishga qiziquvi, bilish qobiliyati namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, tilimizdagi anemonim va meteonimlarning o'ziga xos xususiyatlarini turli tizimli tillardagi xuddi shunday lisoniy birliklar bilan qiyosiy o'rganish mumkin. Chunki taqqoslanadigan tillar hamisha umumiy universallardan tashqari o'ziga xos bo'lgan belgilarni ham ochib beradi.

V.M.Kasyanova rus meteorologik lug'ati bo'yicha tadqiqot olib borgan.<sup>9</sup> U dastlab meteorologik terminologiyada ekvivalentlari bo'lmagan ayrim ob-havo bilan bog'liq, ya'ni yaxshi yoki qulay ob-havo, yomon yoxud noqulay ob-havo, issiq havo, sovuq havo tushunchalarining nomlariga e'tibor qaratgan.

<sup>7</sup>Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н. В. Подольская. – Москва: Изд-во «Наука», 1978. – С. 29.

<sup>8</sup> Доржиева Г.С., Языкова А.А. Мотивационные значения байкальских анемонимов // Вестник Бурятского государственного университета. – 2016. – Вып. 5. – С.9.

<sup>9</sup> Касьянова В.М. Русская метеорологическая лексика: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1985. – 16 с.

T.V.Goryacheva, E.G.Azim-zade, L.Z.Danilova, E.Shcherbakova tadqiqotlarida meteorologik tushunchalarning paydo bo'lish tarixiga nazar tashlangani bilan diqqatni tortadi. L.V.Danilovaning "Turkiy tillarning meteorologik leksikasi" nomli dissertatsiyasida turkiy tillar meteorologik lug'at tizimining shakllanish va rivojlanish jarayonini ko'rsatish uchun ko'plab faktik materiallardan foydalanilgan. Muallif meteorologik leksik birliklarning tuzilishi, makro va mikro maydoni, shakllanish asoslariga e'tiborni jalb qilgan.<sup>10</sup> L.E.Shcherbakova dissertatsiyasida rus tilidagi meteorologik so'zlar orasida yog'in nomlari, ob-havoga aloqador leksik birliklarning konseptual xususiyatlari, ularning tarixiy va zamonaviy matnlarda, shevada qo'llanishiga ahamiyat qaratilgan.<sup>11</sup> Lyu Yanchun rus va xitoy tillaridagi meteorologik so'zlar va fraseologiyani lingvokulturologik aspektda qiyosiy o'rgangan.<sup>12</sup>

Ma'lumki, meteorologik leksikaga oid ayrim so'zlar nafaqat ommaviy madaniyatda qo'llaniladigan nomlar, balki u yoki bu hodisaning terminologik atamasi hamdir. Turli tillardagi meteorologik nomlar ularning to'liq konseptual o'ziga xosligini isbotlay olmaydi, chunki milliy meteorologik nomenklaturada – terminologiyadan farqli o'laroq – ularning namoyon bo'lishida yaqin bo'lgan ob-havo hodisalarini ifodalash tendentsiyasi aniq.

Birinchi bobning ikkinchi fasli "*Fransuz va o'zbek tillarida shamolning onomasiologik-nominatsion xususiyatlari*" deb nomlangan. Olam manzarasini to'liq tasavvur qilishda shamollar nomlarini bilishning o'z ahamiyati bor. Bu o'rinda yana tilning geografiya, iqlim, etimologiya, tafakkur, atrofdagi haqiqat bilan uzluksiz munosabatda ekanligini va yaqinligini his etish mumkin.<sup>13</sup>

Barcha tillarda shamol turlarini nomlashda ularning nomenklatura belgilari sifatida ko'proq kuchliligi, tezligi, barqarorligi va yo'nalishi e'tiborga olingani kuzatiladi. L.Z.Prox tomonidan maxsus "Shamollar lug'ati" tuzilgan bo'lib, unda dunyo shamollarining 1405 nomi dunyoning 59 tilida 1845 ta yozuvda qayd etilgan. Shulardan eng ko'pini fransuz tilidagi shamol nomlari tashkil qilgan. Undan so'nggi o'rinlarni rus va ingliz tilidagi shamol nomlari egallagan.<sup>14</sup>

Shamol nomlanishlariga har bir mintaqadagi atmosferaning umumiy holati, mamlakatning jug'rofiy joylashuvi, u yerdagi daryo, dengiz va okeanlar, hudud reliefi ham ta'sir ko'rsatgan. Shuningdek, bu yana shamol rejimining xilma-xilligiga ham bog'liq.

Shamollar turli xil xususiyatlarga ko'ra bir necha xil nomlar bilan ko'rsatiladi:

1. Kuchiga ko'ra shamol nomlari: a) shiddatli, qo'rqinchli, kuchli esuvchi shamollar: bo'ron, to'fon, dovul; b) kuchsiz, sokin esuvchi shamollar: shamol,

<sup>10</sup> Данилова Л.В. Метеорологическая лексика тюркских языков (Сравнительноисторическое освещение). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 17 с.

<sup>11</sup> Данилова Л.В. Метеорологическая лексика тюркских языков (Сравнительноисторическое освещение). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Ташкент, 1972. – 17 с.; Щербакова Л.Е. Формирование русской метеорологической лексики (наименования осадков, состояний погоды): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1983. – 17 с.

<sup>12</sup> Лю Яньчунь. Метеорологическая лексика и фразеология в русском и китайском языках: лингвокультурологический аспект: Дисс.... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – 243 с.

<sup>13</sup> Радченко О.А., Закутина Н. Диалектная картина мира как идиоэтнический феномен // Вопросы языкознания. – 2004. – № 6. – С. 25-47.

<sup>14</sup> Прох Л.З. Словарь ветров. – Л.: Гидрометеиздат, 1983. – 157 с.

shabada, yel, nasim. 2. Kuchining davomiyligiga ko'ra shamol nomlari: kuchli shamol, qattiq shamol, shiddatli shamol, yalang'och shamol. 3. Yo'nalishining doimiyligiga ko'ra shamol nomlari: tog' shamoli, cho'l shamoli, daryo shamoli, dengiz shamoli, o'zgaruvchan shamol.

Suvliklar (ariq, daryo, dengiz, ummon) o'zan va qirg'oqlarida shamolning ikki turi ajralib turadi: to'liq shamoli, oqim shamoli kabi.

Umuman aytganda, kuch va tezlik, davomiylilik, yo'nalish shamol nomlanishidagi asosiy parametrlardir. Shamolning kuchi uning tezligiga bog'liq. Bu jihatdan u "kuchli shamol" yoki "qattiq shamol" hamda "kuchsiz shamol" kabi ikki muxolifat guruhda namoyon bo'ladi. Ular yana kuchining doimiyligi va davomiyligi parametrlari asosida dovul, shabada, bo'ron, quyun, to'fon, tayfun va boshqa shamol turlariga ajratiladi.

Shamolning yo'nalishi ufqqa, Yer sayyorasining qutblariga, dunyo tomonlariga qarab belgilanadi. Masalan, janubdan esgan shamol, shimol shamoli, qibladan esgan shamol singari hamda sharqdan esayotgan shamol, dengizdan esayotgan sovuq va nam shamol kabi.

G.S.Dorjjeva fransuz tilidagi shamol nomlarini anemonimlar sifatida o'rgangan. Anemonimlar onomastik birliklardan biri bo'lib, so'z va so'z birikmasi, ba'zan gap ko'rinishida uchraydi. Onimalarning bir turi bo'lgan anemonim tabiiy ofat, shu jumladan, shamol, dovul, to'fon kabilarning nomlarini atab keladi. Mashhur rus leksikografi V.I.Dal ham shamolni harakat, havo oqimi sifatida ta'riflaydi.

Fransuz tilida shamol yo'nalishi bilan bog'liq shakllantirilgan bir qator anemonimlar borki, ularning nomlari onomastikada shu xalqning etnik madaniyati, joylashuv o'rniga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, Norde (fr. nordet yoki nord-est) – Fransiyaning uzoq shimolidagi sovuq va quruq shimoliy-sharqiy shamol; Syudua (fr. sudois) – Jeneva ko'lidan esuvchi janubiy-g'arbiy shamol, Van de seveno (fr. vent de ceveno) – sharqdan, tog'dan esuvchi janubiy-sharqiy shamol, Pti-sen-bernar (fr. petit St.-Bernard) – Kichik Sankt Bernarddan esadigan kuchli sharqiy yoki sharqiy-shimoliy-sharqiy shamol bo'lib, asosan, Izer daryosi tomon yo'naladi. Seryuz (fr. ceruse) – Sen-Rafael-Frejyu bilan bog'liq kuchli sharqiy-janubiy-sharqiy shamol shular jumlasidandir. Bundan tashqari, yana shamolning paydo bo'lish joyini aks ettiruvchi Aval (vent d'aval) – quyi oqim shamoli, Amon (fr. vent d'amont) – yuqori oqim shamoli, Mon (fr. mont) – tog' dovonidan keluvchi sharq shamoli, Montan (fr. montagne) – Lomen janubidan esadigan shamol, Premonte (fr. premontais) – Sen-Jervening dovul darajasidagi janubiy-sharqiy shamoli, Van (fr. vent) – janubiy yoki janubiy-g'arbdagi nam havodan iborat kuchli shamol kabilar.<sup>15</sup>

Fransiya reifining o'ziga xos xususiyati sababli Byues (fr. buesh), Vale (fr. valais), Vezin (fr. vesine) – vodiy shamoli; Maren (fr. marin), Marinada (katol. marinada) – dengiz shamoli; Morje (fr., nem. morget) – tungi qirg'oq shimoliy shamoli; Pontias – tungi tog' etagi shamoli; Ruzo (fr. rouseau) – Perti dovonidan

<sup>15</sup>Доржиева Г.С. Французские анемонимы в международной ономастической терминологии. (Топонимические чтения. 2). – Улан-Удэ, 2017. – С.86-93.



esuvchi tongi sharqiy tog‘ shabadasi hisoblanadi.<sup>16</sup>

Keltirilgan misollar shamollarning nomlari kelib chiqishiga oronim, oykonim, xoronim va gidronimlar ham ta’sir qilganligini anglatadi.

Fransuz tilida oronimik xususiyatli Albertvill, Albervill (fr. albertville) – Albervil vodiysining quruq shimoliy-g‘arbiy shamoli; Ardenn shamoli (fr. vent d’ardennes), Voj, vomez (fr. vosges) – Nensidagi sharqiy shamol kabi nomlar ham uchraydi.<sup>17</sup> O‘zbek tilidagi “afg‘on shamoli” ham xuddi shunday oronimik xususiyatli anemonimlardan biridir. Shuningdek, fransuz tilida xoronimlardan, ya’ni Fransiya va unga qo‘shni bo‘lgan mamlakatlarning nomlari orqali yasalgan anemonimlar ham uchraydiki, bunga Italiya chegaralaridan esuvchi Van d’itali (fr. vent d’italie), Ispaniya nomi bilan bog‘liq Van d’espan (fr. vent d’Espagne), Prusiya nomiga tutash Van prussen (fr. vent prussien) shamollari nomini misol qilish mumkin. Grenobl (fr. vent de Grenoble), Bordele (fr. bordelais), Avr (goll.abra “suv”) kabi anemonimlar oykonim va gidronimlar ta’sirida kelib chiqqani seziladi. Fransuz tilida Van-blan (fr. vent blanc), Blan, romer (fr. blanc, ramier), Van de la pousse (fr. vent de la pousse) kabilar oq shamolni (toza va ochiq havodan iborat iliq va quruq shamolni), Van negr (fr. vent negre) yoki Van nuar (fr. vent noir) qora shamolni, Roshbryun (fr. rochebrune), Or russ (fr. aure rousse) – malla, sariq shamolni, Or russ (fr. aure rousse) – qizil shamolni bildirib keladi.

O‘zbek tilida shamolning *nasim*, *shabada*, *tayfun* kabi ayrim nomlari arab va rus tilining ta’sirida o‘zlashgan.

Xullas, har bir tildagi anemonim va meteonimlar, asosan, mahalliy aholining ko‘p asrlik kuzatuvlari natijasida, tevarak-atrof, tabiiy-iqlim xususiyatlarini inobatga olib, ular haqida to‘plagan bilim va tajribalarini hayot tarzi va amaliy mehnat faoliyati bilan bog‘lab shakllantirilgan. Jumladan, shamol nomlari ham xuddi shunday paydo bo‘lgan va til va nutqda o‘ziga xos leksik-semantik jihatdan qo‘llanib kelmoqda.

Birinchi bobning uchinchi fasli “*Fransuz va o‘zbek tillarida meteonimlarning lingvomadaniy jihatlari*” deb atalgan. Ob-havo hodisalarini qayd etuvchi meteonimlar har bir xalq dunyosining madaniy va lingvistik manzarasini o‘zida namoyon etadi. Meteorologik lug‘at va frazeologiyaning milliy-madaniy o‘ziga xosligi yangi turdagi ikki tilli lingvomadaniy lug‘atda yaxlit ko‘rsatilishi mumkin.

Qur’oni Karimda ham ob-havo hodisalari haqida so‘z yuritilgan: “Qaytuvchi (yomg‘ir) sohibi bo‘lgan osmon bilan qasam”, “Biz shamollarni urchituvchilar etib yubordik. Bas, osmondan suv tushirib, u ila sizlarni serob qildik”. Yoki yana: “Alloh bulutlarni haydashini, so‘ngra birga to‘plashini, so‘ngra uyib qo‘yishini ko‘rmayapsanmi?! Bas, uning orasidan yomg‘ir chiqayotganini ko‘rursan. U zot osmondan, undagi tog‘lardan do‘l tushirib, u bilan O‘zi xohlagan kishilarga musibat yetkazur va uni O‘zi xohlagan kishilardan burib yuborur. Uning chaqmog‘ining yarqirashi ko‘zlarni ketkazgudek bo‘lur”.

Ko‘rinyaptiki, yomg‘ir, shamol, bulut, do‘l, chaqmoq kabi hodisalarning nomlari Qur’onda ham ko‘rsatilgan.

<sup>16</sup>Доржиева Г.С. Французские анемонимы в международной ономастической терминологии. (Топонимические чтения. 2). – Улан-Удэ, 2017. – С.86-93.

<sup>17</sup>Yuqoridagi manba.

Odamlar o‘zlarini keng olamning ajralmas qismi, tabiatning bir bo‘lagi deb bilganlar. Shuning uchun tilda ba‘zan Iqlima, Yomg‘ir, Yashin, Bo‘ron, Tongotar, Qoryog‘di va hokazo antroponimlardan foydalanish holati uchraydi. Yoki it yoki otga Bo‘ron nomi beriladi. Bu nom kosmik kema nomi sifatida ham qo‘llangan. Andijonda so‘lim go‘shalardan birining nomi “Bog‘i shamol” deb ataladi. Barcha tillarda qorbobo, qorqiz, qorodam, qor malikasi kabi mifonimlar ham mavjud. Fransuz adibi Gi de Mopassanning “Portda” hikoyasida “Shamol malagi” nomli kema pereyonimi keltirilgan.

Xalq meteorologiyasi ko‘pincha matal, gap, ritual (marosim) matnlarida aks etishi ko‘rinadi. Shuningdek, har bir xalqning kundalik hayotida ham meteorologik so‘zlar ko‘p qo‘llanadi.

Ob-havo sharoiti aholining hayotida sezilarli o‘ringa ega bo‘lgan asosiy omillardan biridir. Xalq qanday iqtisodiyot bilan shug‘ullangan bo‘lsa – qishloq xo‘jaligi yoki mollarni ko‘paytirish, ovchilik yoki asalarichilik, har qanday hunarmandchilik kabilarda – meteorologik sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘pgina meteorologik obyektlar va hodisalarning xudolari nomi xalq e‘tiqodida saqlanib qolganligi bekorga emas.

Xalq kalendari fransuz va o‘zbek xalqi orasida keng tarqalgan. Unda har yili ijobiy xarakterga ega bo‘lgan yoki nojo‘ya belgilar, shu jumladan, meteorologik sharoitlar ko‘rsatilgan. Masalan, “Qachon tovuq yili kelsa, yomg‘ir oz yog‘ar, quruq bo‘lgay, ekin-tikin yaxshi bo‘lgay, qishi uzoq bo‘lgay” deyiladi.

O‘zbeklar ham boshqa ko‘plab turkiy xalqlar singari qadim zamonlardan beri ob-havoni muntazam kuzatish ishlarini olib borishmoqda. Dastlab bu kuzatishlar avloddan-avlodga og‘zaki o‘tgan.

Meteorologik bashoratlar kelajak ustida bahs yuritishi bilan diqqatni tortadi. Meteorologik sharoitlarni kuzatish orqali odamlar animatsion va jonsiz tabiatning turli obyektlari bilan o‘zaro bog‘liqliklarini topdilar. Kishilarning bunday kuzatishlari afsonalar, maqollar, so‘zlar, bashoratlar va har xil matnlarda o‘z aksini topadi. Shu munosabat bilan xalq meteorologik prognozlari uning tabiatdagi obyektlar va hodisalarda namoyon bo‘lishining turli belgilari bilan ajralib turadi. Bunday xarakterli prognozlarni quyidagicha guruhlash mumkin: 1) osmon jismlarining (quyosh, oy, yulduzlar) xususiyatlari bo‘yicha; 2) tabiiy hodisalarning yo‘nalishi (shamol, bulutlar, chaqmoq, yomg‘ir, qor, shudring, tuman, sovuq va boshqalar); 3) oldingi yillar va davrlarning ma‘lum belgilariga ko‘ra (yillar, oylar, kunlar); 4) o‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘yicha (barglarni ochish, gullash, meva berish va h.k.); 5) hayvonot dunyosi vakillarining xatti-harakatlari belgilari (chorva mollari, hayvonlar, qushlar, baliqlar, hasharotlar va boshqalar); 6) odamning jismoniy holatida turli o‘zgarishlar (bo‘g‘imlar va yaralardagi og‘riqlar, uyqusizlik, o‘zgarishlar, kayfiyat, turli organlarda qichish hissi va boshqalar).

Eng ishonchli meteorologik prognozlar hayvonot va o‘simlik dunyosi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ko‘pchiligi ilmiy jihatdan tasdiqlangan.

Meteorologiyaga fasllar bo‘yicha ham afsonalar, maqollar, iboralar, xalq prognozlari mavjud. Masalan, qushlar qorga qo‘nsa – issiqqa ishora; osmondagi yulduzlar yorug‘ bo‘lsa, sovuqqa ishora, qishda momaqaldiraq bo‘lsa, kuchli shamoldan nishona, mushuk burnini yashirsa, sovuqqa ishora va h.k. Albatta,

bunday belgilar uzoq yillik kuzatishlar jarayonida paydo bo'lgan va ularning ko'pchiligi amaliyot bilan tasdiqlanadi. Ammo barcha alomatlar tabiiy hodisalarning sabab va ta'sir munosabatlari uzoq muddatli kuzatishlardan kelib chiqmagan. Ularning ba'zilari tabiatni idealistik idrok etish natijasida e'tiqod, tasodiflar va boshqalar asosida paydo bo'lgan.

Xalqlarning meteorologiyaga oid urf-odatlar va marosimlari ham mavjud. Masalan, o'zbek xalqi orasida yomg'ir yog'dirish bilan bog'liq bir qancha marosimlar bo'lib, ularning ba'zilari hozirgi kungacha saqlanib qolgan. O'zbeklarning meteorologik marosimlari qatoriga Navruz, Sust xotin, Choy momo, Mehrjon kabilar misol bo'la oladi.

Ba'zi meteorologik hodisalar yilning barcha fasllarida (shamol, tuman, yomg'ir, bulutlar va boshqalar) mavjud, shuning uchun ularning nomlari alohida-alohida guruhlarda tanlab olinadi. Ba'zi tabiiy hodisalar yilning ikki-uch fasliga xosdir. Masalan, bahor, yoz va kuzda yomg'ir yog'adi; kuzda, qishda va bahorda qor. Shamol esa barcha fasllarga xoc.

Tilning xalq meteorologik lug'ati leksik birliklar tizimida hajm va xilma-xilligi jihatidan keng tematik guruhdir. Meteorologik so'z boyligining asosiy qismi qadimiydir. Tilning meteorologik leksikoni asosiy qismida chetdan olingan so'zlar deyarli kam. Ular kichik sonlarda, asosan, tematik guruhning periferik sohalarida uchraydi.

Ikkinchi bob "**O'zbek va fransuz meteonimlarning leksik-semantik tasnifi**" deb atalgan. Uning ilk fasli "*Tilda meteonimlarning ma'noviy turlari*" deb yuritilgan. Dastlab maishiy maqsadlarda, qishloq xo'jaligi, transportlarni boshqarish ehtiyoji bilan shakllangan meteorologiya asta-sekin ilmiy asoslarini mustahkamlab bordi. Hozirda meteorologiyadan uchuvchilar, dengizchilar, harbiylar, qishloq xo'jaligi xodimlari keng foydalanadilar.

Qadimda ovchi, to'pchi, merganlar ham meteorologlarni juda hurmat qilishgan, chunki o'q otish aniqligi atmosfera, shamol, namlik va boshqalarga bog'liqdir.

Iqlim mintaqaning fizik-geografik xususiyatlaridan biridir. U odamlarning iqtisodiy faolligiga ta'sir qiladi: qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, sanoatning geografik joylashuvi, havo, suv va quruqlik transporti iqlimga bog'liq holda tanlanadi.

Atmosfera haqidagi fan bo'lgan meteorologiyaga oid tushunchalarni ifodalovchi so'zlar inson tili va nutqida o'z o'rniga ega. Ulardan inson o'z faoliyati davomida doimiy qo'llanib kelgan. Meteorologiya, odatda, bir nechta bo'limlarga bo'lingani kabi uni ifodalovchi atamalar ham turlicha. Bular quyidagilardir:

1. *Dinamik meteorologiya*. Uning o'zi yana gidrodinamika, termodinamika, aerodinamika kabi atamalarni qamrab oladi. Shundan gidrodinamika kuchlar va harakat, termodinamika issiqlik bilan shug'ullansa, aerodinamika havo oqimlari va samolyot kabi tashqi jismlarning o'zaro ta'sirini o'rganadi.

2. *Jismoniy meteorologiya* radiatsiya, issiqlik, bug'lanish, kondensatsiya, yog'ingarchilik, muzning o'sishi, shuningdek, optik, akustik va elektr hodisalari kabi sof jismoniy jarayonlarga e'tiborni qaratadi.

3. *Klimatologiya* iqlimshunoslik yoki statistik meteorologiya iqlim ko'rsatkichlarini, uning normal qiymatlarini, chastotasini, o'zgarish boshqichlarini belgilab beradi.

4. *Sinoptik meteorologiya* ob-havo hodisalarini tahlil qilish va prognoz qilish uchun kuzatuvlar olib boradigan sohadir. U atmosferadagi jarayonlarni muvofiqlashtirilgan holda o'rganishga qaratiladi va o'z tarkibiga dinamik hamda fizik meteorologiyani qamrab oladi.

5. *Aviatsiya meteorologiyasi* aviatsiyaga tegishli bo'lib, *parvoz yoki aeronavtika, aviatsiya meteorologiyasi* havoda uchish muammolariga meteorologiya tushunchalarini qo'llash bilan shug'ullanadi.

6. *Dengiz meteorologiyasi* navigatsiyaga tegishli bo'lib, suv bilan bog'liq ob-havoni o'rganadi.

7. *Gidrometeorologiya* suv toshqinlarini tartibga solish, sug'orish va boshqalar bilan bog'liq meteorologik muammolar bilan shug'ullanadi.

8. *Qishloq xo'jaligi meteorologiyasi* qishloq xo'jaligida meteorologiyani qo'llash va tuproq unumdorligini saqlash bilan shug'ullanadi.

9. *Tibbiy meteorologiya* ob-havo va iqlimning inson organizmiga ta'siri bilan shug'ullanadi.

10. *Aerologiya* – umuman atmosfera haqidagi fan nomi bo'lib, erkin atmosferadagi sharoitlarni aniqlash uchun to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvdan foydalanadigan meteorologiya bo'limi.

Ba'zan "meteorologiya" va "aerologiya" so'zlari birining o'rnida ikkinchisi ishlatiladiki, bundan ularning sinonim sifatida qo'llanishi anglashiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "*Fransuz va o'zbek tillarida meteorologik so'z hamda iboralar semantikasi*" deb sarlavhalangan. Fransuz va o'zbek tillaridagi meteonim komponentli meteoleksika va frazeologik birliklar o'ziga xos salmoqqa ega. Taqqoslanayotgan bu tillarda meteorologik leksik birliklar ishtirokida so'z birikmalarining yaratilishi ham faol. Ulardan ayrimlari majoziy ma'noda ishlatilishi va hayotning turli tomonlarini ifodalashi kuzatiladi. Masalan, u otaxonning issiq-sovug'idan xabar olib turdi. Shuningdek, ular shaxs tavsifi uchun ham ishlatiladi. Bunda ular shaxsning tashqi ko'rinishi, jismoniy holati, hissiy, intellektual, nutq sohalari, ijtimoiy munosabatlar va boshqalarni ifodalashda qo'llanadi.

Fransuz va o'zbek tillari meteorologik leksikasi ularning tipologiyasini tasdiqlashga imkon beradi. Fransuz va o'zbek tillaridagi aksariyat meteorologik so'z va frazeologiya umumbashariydir.

Meteorologik leksika va iboralar, so'z birikmalari nafaqat ob-havo, tabiat hodisalari, balki ular xalqning madaniy o'ziga xosligini ham ko'rsatadi. Ya'ni ular ma'lum bir xalq dunyosining lingvistik manzarasini o'zida namoyon etadi. Meteorologiyaning milliy va madaniy o'ziga xosligi lug'at va frazeologiyada yaxlit shaklda taqdim etilishi mumkin.

Meteonim so'z va birikmalar: 1. Ob-havoning umumiy holatini tavsiflovchi: tumanli havo, tiniq osmon, issiq kunlar, ochiq osmon, quyoshli kun, bulutli kun, ma'yus osmon, bulutli osmon, shudringli havo, yengil shabada. 2. Havo harorati va atmosferani tavsiflovchi: issiq, iliq, issiqlik, sovuq, ayoz, qahraton sovuq va

boshqalar. 3. Havo harakatini tavsiflovchi: shamol, shabada, bo‘ron, tayfun, dovul, musson, shabada, sokin, shamolli, kuchli quruq shamol. 3. Atmosfera namligi va yog‘ingarchilikni tavsiflovchi: quruqlik, namlik, nam, yomg‘ir, sel, do‘l, momaqaldiroq, chaqmoq, yomg‘ir, qor, qor parchalari, ayoz, shudring, to‘xtovsiz yomg‘ir, chelaklab quymoq (juda kuchli) degani, quyosh nurida yog‘ayotgan yomg‘ir va hokazo. 4. Intellektual soha: Boshdagi tuman “bir narsani tushunish qiyinligi, tushunmaslik, tushunarsiz” ma‘nosi. 5. Nutq sohasi: so‘zlarni shamolga otish – behuda gapirmoq, befoyda so‘zlamok. 6. Shaxsning axloqiy fazilatlari: shamol qaysi tomondan esdi (beparvo odamdan chiqqan kutilmagan fikr). Qishda qor so‘raolmaysiz – ziqna, ochko‘z haqida. 7. Xulq-atvor, odamning tasviri: shamolga sovurmoq – behuda sarflamoq. 8. Yashash sharoiti. “Jayhun ustida bulutlar” yoqimsiz, og‘ir narsaning yaqinlashishi haqida. 9. Ijtimoiy soha: shamol esdi, o‘zgardi. 10. Insonning kutilmagan hodisalarga munosabati: bo‘ronlarda bordek halovat. 11. Odamning tashqi ko‘rinishi: qordek oppoq yuz, peshanasidagi terlari shudringdek tovlanib turardi. Yuragi muz va ayoz kabi sovuq edi. 12. Insonning jismoniy holati: ovozi momaqaldiroqday eshitildi. 13. Hissiy soha: ko‘kragiga bir shabada tegdi (erkin bo‘ldi ma‘nosida).

Ikki tilli lingvomadaniy lug‘atda taqdim etilgan meteonimlar, odatda, quyidagicha izohlanadi: I. Chaqmoq chaqishi bilan birga keladigan tabiat hodisasi – momaqaldiroq. II. Momaqaldiroq – turli dinlar va mifologiyalarda momaqaldiroq xudolar g‘azabining ko‘rinishlaridan biridir, deya talqin qilingan. Masalan, Zevs (yunon mifologiyasi), Yupiter (Rim mifologiyasi), Leigong (Xitoy mifologiyasi), Perun (slavyan mifologiyasi), Hazrat Ali (o‘zbek mifologiyasi) va boshqalar. Hind-evropa an‘analarida momaqaldiroq harbiylarning homiysi hisoblangan. Xitoy mifologiyasiga ko‘ra, Leigong (momaqaldiroq xudosi) va Dianmu (chaqmoq) – er va xotin. Leigong adolatli xudo, u Xudoning saroyi nomidan yomon odamlarni jazolaydi. III. Momaqaldiroq qo‘rquvni keltirib chiqaradi, chunki bu hodisa nafaqat kuchli shovqini va olovli chaqmoqlari, balki o‘lim vahimasi bilan bog‘liq tahdid soladi. Momaqaldiroqdan o‘ldirilish samoviy jazo sifatida qaralgan. Qadimgi odamlar momaqaldiroqni samoviyning g‘azabi deb hisoblashgan. Momaqaldiroq komponentlari bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklar: a) hodisani hayratlanarliligini ko‘rsatadi, biror voqeadan odamning ajablanishini bildiradi; b) shaxs tavsifi uchun ishlatiladi. Masalan, momaqaldiroqday qattiq kulib yubordi, momaqaldiroqdek xurrak otdi. Gi de Mopassanning “Do‘ndiq” hikoyasida shunday misol uchraydi: “Fabrikaning yoshgina xotini ochlikdan bexosdan shunday oh tortib yubordiki, hamma o‘g‘irilib unga qaradi, *uning rangi daladagi qorday oqarib ... hushidan ketdi*”.

Xullas, “ob-havo” – semantik maydonining birliklari tilda his-tuyg‘ularni tavsiflash manbai. U lingvistik va madaniy tushuncha sifatida til va madaniyatlararo muloqotda o‘z o‘rniga ega.

Uchinchi bob “**Meteonimlar hamda taqvimiy birliklar munosabati**” deb nomlangan. Bobning ilk fasli “*Xalq taqvimida meteonimlar ifodasi*” nomi bilan yuritilgan. Dehqon va chorvadorlarning tabiat injiqliklari oldidagi ojizligi tabiat kuchlariga sig‘inishni keltirib chiqargan. Bunda astral qarashlarga ham amal qilingan. Aytaylik, quyosh nuri va yorug‘i hosilning unishi, pishib yetilishi uchun

yordam beradi, yangi oy chiqqanda o‘roqday tik bo‘lsa, ob-havo qulay keladi deb qaralgan.

Insonlar qadimdan barcha sohalarda mehnat faoliyatini taqvim bilan bevosita bog‘liqlikda yuritishgan. Qadimdan odamlar yulduzlarning, qush va jonivorlarning harakatiga, tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlarga qarab yurgizishgan.

Taqvim folklori masalalariga munosabat M.V.Sazonova, U.Ustoyev, F.Raxmonov, A.Narziqulov, F.Isoqov, U.Qoraboyev, M.Jo‘rayev, Sh.Shomusarov, M.Pirmatova tadqiqotlarida kuzatiladi.<sup>18</sup> Shular asosida xalq taqvimlari quyidagi turlarga bo‘linishini qayd qilish mumkin: 1. Osmon yoritqichlari harakati bilan bog‘liq holda kelib chiqqan taqvimlar. 2. Dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaligini yuritish bilan bog‘liq taqvimlar. 3. Fenologik taqvimlar.

Yurtimizda bahorgi dala ishlari, odatda, mahalliy taqvimga ko‘ra, Yangi yil, yilboshi – Navro‘zdan, ya‘ni quyoshning baliq (hut) burjidan qo‘y (hamal) yulduzlar turkumiga o‘tish vaqtidan boshlangan. Bu hozir ham amal qilayotgan Oy kalendari bo‘yicha 21-martdan boshlanib 21-aprelgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Folklorshunos M.Jo‘rayev Hutning “qaqrayla”, “sariqsumalak”, “ochamsumalak”, “ayamajuz”, “ahman-dahman”, “hezim xirmon”, “laylakqor”, “terak kuchala”, “o‘rik guli qori”, “nasi navro‘z”, “obi rahmat”, “kuni bekor” kabi taqvimiy muddatlardan iboratligini aytib o‘tgan.<sup>19</sup>

Ayamajuz (Ojuz momo) Navro‘z kelishidan avvalgi ayozli shamol kunlarining egasi bo‘lib, bu kunlar *kampir kunlari* deb yuritiladi. Bu davr barcha xalqlar taqvimida qayd qilingan. Jumladan, fransuzlarda ham fevral oyining so‘nggi uch kuni bilan mart oyining dastlabki uch kuni yoki mart oyining oxirgi uch kuni bilan aprel oyining boshlang‘ich uch kuni – jami olti kun “baxtsiz va omadsiz kun” sifatida talqin qilinadi hamda uni “kampir kunlari” deb ataladi.<sup>20</sup>

Ko‘klam kelishi vaqtida boshlanadigan 6-7 kunlik sovuq, izg‘irinli havo yog‘in-sochinligi, shamol va ayoz bilan kechishi jihatidan noqulaylik tug‘diradi. Xususan, endi kurtak yoygan va gullagan daraxtlarga zarar yetkazadi. Ob-havoda keskin o‘zgarishlarni sodir etadigan bu vaqt xalq o‘zbeklar orasida Ayamajuz, Ayyomi Muvjiz, Aziz momo, Ojiz momo kabi nomlar bilan yuritiladi va ular mifonimlar hisoblanadi.

O‘zbek xalq taqvimlaridan yana biri Ahman-dahmandir. U ham ayoz turlaridan biri bo‘lib, na odamlarga, na jonivor-u o‘simliklarga ziyon yetkazadi. Uning oxirgi kunlarida do‘l yog‘ishi ham mumkin. U ikki kungina davom etishi mumkin. Ahman-Dahmandan keyin Hezim-Xirmon, so‘ng Naxsi Navro‘z (yoki

<sup>18</sup> Сазонова М.В. О народном календаре узбеков Хорезма // Краткое содержание докладов Средноазиатско-кавказских чтений. – Л., 1979. – С.346-351; Устоев У. Новый год (навруз) в мифологических воззрениях у таджиков и узбеков // “Советская этнография”, 1985. – №6. – С. 10; Рахмонов Ф. Қашқадарё воҳаси деҳқонларининг зироатчиликка оид урф-одат ва маросимлари: Тарих фанлари номз. дисс. – Тошкент, 2001; Нарзиқулов А. Деҳқон тақвими. – Тошкент: Меҳнат, 1991; Исоқов Ф. Фарғона водийси ўзбекларида деҳқончилик тақвими билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар. // Ўзбекистон этнографияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. – Тошкент, 2004. – Б.205-215; Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент, 1991.

<sup>19</sup> Жўраев М. Яхши келса Хутни кўринг. // Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.19.

<sup>20</sup> Булатова А.Г., Булатов А.О. Некоторые религиозные верования и мифологические представления дагестанцев, связанные с календарем. // Проблемы мифологии и верований народов Дагестана. – Махачкала, 1988. – С. 43.

“Nosi navro‘z”) boshlanadi. Afsonalarda u Ajuz momoning eri deb ko‘rsatiladi. U Navro‘zdan oldin bir necha kunlik salqin havoga sababchi qilib ko‘rsatiladi.

Xalq taqvimida qattiq qish (qish chillasi) “Qantar Og‘di” deb yuritilgan. U to‘qson kunlik qishning yarmi hisoblangan va fevral oyining boshiga to‘g‘ri kelgan.

Ko‘rinadiki, meteorologik lug‘atning boyishida xalq taqvimi bilan bog‘liq so‘z va so‘z birikmalarning alohida o‘rni borligini inkor qilib bo‘lmaydi. Til har bir xalqning ma‘naviyati va madaniyati xazinasidir. Jahon tilshunosligining mashhur vakillaridan biri bo‘lgan V. von Humboldt ta‘kidlaganidek, dunyo tillarini o‘rganish ham insoniyat fikrlari va his-tuyg‘ularining jahon tarixidir.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “*Fransuz va o‘zbek tillarida taqvimiy birliklar*” deb atalgan. Meteorologik hodisalar kalendar (taqvim) va vaqt tushunchasi bilan bog‘liq. Shuning uchun ularni fazoviy deyxis, diskurs deyxis, ijtimoiy deyxis, shaxs deyxisi qatorida vaqt deyxisi bilan ham bog‘liqlikda o‘rganish lozim.

Aytish kerakki, deyktik ifodalarni hal qilishda pragmatikaning roli ko‘rgazmali tizimlarga yaqindan qarash bilan belgilanadi. Deyxisning bir turi vaqt deyxisi bo‘lib, ma‘lum bir vaqt oralig‘ini, shu jumladan, so‘z yoki gapning aytilish momentini anglatadi. Bugun so‘zlashuv hodisasi sodir bo‘ladigan sutkalik oralig‘ini bildiradi. So‘zlash vaqtida ega bo‘lgan xususiyatni predikatsiya qiladi. Taqvim birliklarida kodlash vaqti orqaga qarab hisoblanadi. Bunda kecha yoki uch yil oldin, yoki oldinga, ertaga yoki keyingi payshanba kabi so‘z yoxud so‘z birikmalaridan foydalaniladi.

Tilning yozma yoki yozib olingan qo‘llanishida kodlash vaqtini qabul qilish vaqtidan ajratiladi, xususan, tillarda ko‘pincha “Men o‘sha yomg‘irli tunda, izg‘irinli havoda Parij ko‘chalarida rosa tentirab yurdim” yoki “Men shamolday izg‘idim” deya yurish haqida konvensiyalar mavjud.

Taqvimiy birliklarning tabiati turli madaniyatlarda farq qiladi. Masalan, “tun” so‘zi ham shunday kunlik birlik sifatida tan oladi. “Kecha”, “oqshom”, “o‘sha tun” kabi so‘z va birikmalar, ertaga, indinga va shunga o‘xshash kelajakni belgilovchi maxsus monomorfema so‘zlarga va undan keyin generativ tizimga ega. Undan keyingi tun va kunlarni belgilash uchun mana shunday tizimga muhtojlik mavjud, chunki hafta tushunchasi yoki barcha tillardagi kabi vaqtni kodlash bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan taqvim birliklarining kattaroq vaqt tizimi yo‘q. Ammo ko‘pchilik tillar vaqtni o‘lchash tizimlari, masalan, taqvimiy birliklar orqali deyktik bog‘lanishi o‘rtasida o‘zaro murakkab ta‘sir ko‘rsatadi.

Fransuz va o‘zbek tillarida vaqt o‘lchov birliklari taqvim orqali yoki meteorologik hodisalar vositasida aniqlanishi mumkin. Masalan, bunga Gi de Mopassanning “Oqsoch qiz sarguzashti” hikoyasidagi quyidagi parcha misol bo‘la oladi: “Er ... *kunbo‘yi* xotinining jig‘iga tegib, *tunbo‘yi* to‘shakda g‘azabiga chidolmay haqorat qilardi. Hatto u *bir kuni kechasi*, qandoq qilib xotinining joniga qattiqroq tegishni bilmay, xotiniga o‘rnidan turib, *tong otguncha* hovlida, *yomg‘irda* turishni buyuradi”.<sup>21</sup>

<sup>21</sup> Ги де Мопассан “Хаёт”, “Азизим” новеллалар. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.

Keltirilgan ushbu parchada *kundan tungacha, tundan kungacha, bir kuni, kechasi, tong otguncha* kabi taqvimiy birliklar qatorida *yomg'ir* metonimi ham qo'llangan. Shu orqali asar qahramonlari bilan vaqt hamda tabiat hodisasi orasidagi aloqadorlikni ko'rsatishga erishilgan. Xuddi shunday tasvirga Gi de Mopassanning "Madmuazel Fifi" hikoyasida ham duch kelish mumkin. Unda voqelik bayoni tun tasviridan boshlangan bo'lib, tunning yomg'irli ekani "kimdir g'azab bilan sepib tashlagandek shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir" deya ta'kidlangan. Bunda yomg'ir bosh qahramonning bosqinchilarga nafratini badiiy ifodalash uchun ramz vazifasini o'tagan.<sup>22</sup>

Umuman aytganda, *kundan tungacha, tundan kungacha, bir kuni, kechasi, tong otguncha* kabi ifodalar aytilgan vaqtdan boshlab qaysi kun ichida (dushanbadan seshanbagachami yoki chorshanba kechasimi, payshanba tonggigachami) boshlanadigan kalendar birligi ichida, shu jumladan, aytilgan vaqtni kafolatlashi noaniqdir. Ular vaqtni aniq emas, umumiy ataydi. Qolaversa, bir taqvim yili 365 kunlik birlikdan, 12 oy, 48 haftadan iboratligi e'tiborga olinsa, yuqoridagi taqvimiy birliklarning umumiy ma'noda qo'llanishi oydinlashadi.

Ma'lumki, kun va tun, tong kabilar kunlik birlikning bir qismini, jumladan, tong birinchi yarmini, kun o'rta qismini, tun esa so'ng qismini kodlab keladi.

To'rtinchi bob "**Meteonimlarning tuzilishi, yasalishi va metaforik qo'llanishi**" deb nomlangan. Uning birinchi fasli "*Meteonimlarning tuzilishi va yasalishi*" deb atalgan. I. Fonetik tuzilishi jihatidan ular bir bo'g'inli: (o'zbek tilida: yel, qor, muz, sel, do'l.../ fransuz tilida: vent...); ikki bo'g'inli: (o'zbek tilida: chaqmoq, yashin, yomg'ir, nasim, shamol; jala... / fransuz tilida: neige, glace, grêle, le vent...); uch bo'g'inli: (o'zbek tilida: guldurak, shabada.../ fransuz tilida: tonnerre, la foudre, éclair, la pluie, petit vent...); to'rt bo'g'inli: (o'zbek tilida: jinto'palon; fransuz tilida: temps tres froid...); besh bo'g'inli: (o'zbek tilida: momaqaldiroq / fransuz tilida: pluie torrentielle, inondation...).

II. Yasalishiga ko'ra: 1. Tub so'z. O'zbek tilida: yel, nasim, shamol, qor, yomg'ir, shabada, to'fon, dovul, sel, jala... Fransuz tilida: vent, ouragan....2. Yasama so'z. O'zbek tilida: qor+bo'ron, tosh+bo'ron, chaq+in, chaq+moq... Fransuz tilida: neige + tempête, rocher + tempête...

Meteonimlarni yasalishi jihatidan tuzilishiga qarab sodda va qo'shma yasama so'zga ajratish mumkin: qor+bo'ron, tosh+bo'ron, fransuz tilida: vent gespille, pluie torrentielle, brisemarine.

Meteonimlar juft so'z sifatida ham qo'llanadi. Masalan, o'zbek tilida: yog'in-sochin, qor-yomg'ir... Fransuz tilida: neige-pluie ...

Shuningdek, meteonimlar takror so'z ko'rinishida ham uchraydi. Masalan, o'zbek tilida: qor-qor o'ynamoq, loy-loy o'ynamoq, shamol-shamol qo'shig'i.... Fransuz tilida: jeu neige-neige, jeu boue-boue, chant vent-vent ...

Meteonimlar tarixiy va zamonaviy yasalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: 1. Diaxronik yasalishli. Masalan, o'zbek tilida: yildirim, izg'or, yashin, momaqaldiroq... Fransuz tilida: éclair, foudre... 2. Sinxronik yasalishli. Jumladan, o'zbek tilida: chaq+in, yel+vizak, guldur+ak... Fransuz tilida: tonnerre, courant

---

<sup>22</sup> O'sha manba.



d'aire...

T.Aliqulovning fikricha, “yel-yog‘in otlari sirasida sinxron yasaliş mahsuli yo‘q. Yasamalarning barchasi tarixiy yasaliş bo‘lib, sanoqli so‘zlargina (seryomg‘ir, uyurma) hozirgi tilimiz nuqtai nazaridan yasalgan birlik sanalishi mumkin”.<sup>23</sup>

Yana shuni ta‘kidlash mumkinki, tabiat hodisalari nomi yangi so‘z yasalişiga asos ham bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilida: muzqaymoq, yomg‘irpo‘sh, soyabon... Fransuz tilida: glace, imperméable, parapluie...

Meteonimlar shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra sinonim, ya‘ni ma‘nodosh bo‘lishi ham kuzatiladi. O‘zbek tilida: yel, nasim, sabo, shamol, shabada, bo‘ron, dovul, to‘fon... Fransuz tilida: vent gespille, petit vent, souffle, vent, ouragan, tempête ...

Omonim, ya‘ni shakldosh meteonimlar ham mavjud. O‘zbek tilida: qor, yel, chaqmoq, tuman, sel... Fransuz tilida: neige, vent gespille, foudre, brouillard, inondation...

Antonim, ya‘ni zid ma‘noli meteonimlar ham uchraydi. O‘zbek tilida: shabada – bo‘ron... Fransuz tilida: vent-tempête...

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli **“Meteonimlarning metaforik tarzda qo‘lanishi”** deb nomlangan. Insonning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarining barchasi maxsus vositalar yordamida tabiiy tilda aks ettiriladi. Meteorologik so‘z va iboralarda sistema semantikasi va obrazlilikning qiyosiy tahlilini o‘tkazish, ularning metaforik ishlatilishi, komponentli frazeologik birliklarni tasniflash zarur hisoblanadi.

Fransuz va o‘zbek tillaridagi meteonimlarning majoziy imkoniyatlari insonning hissiy hayotining tavsiflari bilan bog‘liq. Inson his-tuyg‘ularining tasviriy-metaforik ifodasi: 1. Quvonch: quyoshli tabassum (yaxshi kayfiyat haqida). 2. G‘amginlik (qayg‘u): bulutli kayfiyat, ma‘yus, bulutdek qora va hokazo. 3. Ko‘ngilsizlik: boshidan sovuq suv sepgandek, juda hafsalasi pir bo‘lmoq. 4. G‘azab: momaqaldiroq va chaqmoqdek otilib chiqmoq. 5. Joylashuv, samimiylik: iliq so‘zlar, iliq uchrashuv, issiq o‘pish, issiq sevgi; issiq yurak, yurak tafti bilan “do‘stona; hamdardlik” ma‘nosini anglatadi. 6. Sovuqlik: sovuq yurak, na issiq, na sovuq, ‘butunlay befarq, baribir, muzdek nigohini tikib sovuq qaramoq yoki “muz va ayoq kabi sovuq”. 7. Qo‘rquv: sovuq ter chiqmoq. 8. Ajablanish: momaqaldiroqli nutq so‘zladi.

Tungi osmonda shu‘la sochgan chaqmoq ham vahimali, ham jozibali, ham yorqin kuzatilishi boisidan *tungi chaqmoq* birikmasi nutqda ko‘p qo‘llanadi. Fransuz shoiri Per Reverdi (1889-1960) “Naissance a l’orage” – “Bo‘ronning tug‘ilishi” she‘rida aynan tun chaqmog‘i obrazidan foydalangan. Ejen Gilvik (Eugène Guillevic, 1907-1997) esa “Fransuz shoirlari” to‘plamiga kiritgan bir she‘rini “Chaqmoqlar” deb atab, unda chaqmoq obrazini o‘z va ko‘chma ma‘nolarda qo‘llagan. Bunda shoir miyada birdan yalt qilib tug‘ilgan kelajak bilan bog‘liq orzu-istaklarni chaqmoqqa o‘xshatib, o‘ziga xos metafora yaratgan. Yana bir fransuz shoiri Elyuar Pol (asl nomi Ejen Emil Pol Grendel, 1895-1952) esa

<sup>23</sup> Алиқулов А.Ф. “Ел-ёгин” луғавий-маъновий гуруҳи (тизими, қўлланилиши ва лексикографик талқини): Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 19 б.

“Chaqmoq chaqnaganda” nomli she’rida vafot etgan insonni momaqaldiroq timsolida aks ettirgan.

Fransuz tilida kamalak “Arc-en ciel” so‘zi bilan yuritiladi. Shu nomda Pier Koran ham she’r bitgan.

Har ikkala tilda qor, yomg‘ir, chaqmoq, bulut, jala, sel va hokazo singari osmon bilan bog‘liq atmosfera hodisalarining nomi ishtirokida jonlantirishga asoslangan ko‘plab metaforik birikmalar uchraydi. Masalan, chaqmoq urdi, sel yuvib ketdi kabi.

Meteonimlar badiiy matnlarda deopetonim sifatida uchraydi. Bunda ular yo o‘z ma’nosida, yo ko‘chma ma’noda qo‘llanib kelishi kuzatiladi. Masalan,

Yoz yomg‘iri yondan o‘tar, Qish yomg‘iri – jondan.	Les pluies d’été passent à la bonne côtéé, Les pluies d’hiver tombent à la mauvaise !
Yozning yomg‘iridan qo‘rq, Qishning – qirovidan.	Méfie-toi de la pluie en été, Et du gel en hiver.
Javzodagi yomg‘irdan, ilon yog‘sa yaxshi.	Mieux avoir la pluie des serpents qu’à celle du canicule d’été !
Yomg‘ir – ekinning joni yoki Yomg‘ir yog‘sa – yerning baxti.	La pluie c’est l’âme de la plante, ou quand il pleut c’est le bonheur de la terre.

Fransuz va o‘zbek tillarida meteonimlar bilan bog‘liq so‘z birikmalari quyidagicha shakllangan: 1. Mavsum, fasllar bilan bog‘liqligiga qarab. Kun, sutka, hafta kabi vaqt nomlari bilan bog‘liqligiga qarab. 3. Tezligi, kuchi va miqdoriga qarab. 4. Yo‘nalishi va ko‘rinishiga qarab: 5. Yog‘ish o‘rniga qarab. 6. Xususiyati va holatiga qarab. 7. Ovoziga qarab. Meteonimlar bilan bog‘liq holda shakllangan sintaktik birliklar sintaktik sinonimiya ham hosil qila oladi.

## XULOSA

1. Ma’lumki, dunyo xalqlari, jumladan, fransuz va o‘zbeklar ham qadim zamonlardan buyon ob-havo, iqlim va boshqa tabiiy hodisalar holatini kuzatib kelgan, turli bilimlar orttirgan. Bu bilimlarning bir qismi ularni ifodalovchi leksik birliklar tizimi bilan bog‘liq. Bunda har bir xalqning hayot yo‘li va kasb-kori ehtiyojlari sabab bo‘lgan. Iqlim, ob-havo haqida har bir xalqning o‘z g‘oyalari mavjud bo‘lib, u tilda aks etadi.

2. Fransuz va o‘zbek tillarida meteonim komponentli meteoleksika va frazeologik birliklar alohida o‘ringa ega. Taqqoslanayotgan bu ikki noqardosh tillarning meteorologik lug‘ati va frazeologiyasining lisoniy-semantik, lingvomadaniy va lingvostilistik o‘ziga xosligi nuqtai nazaridan kuzatilganda, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar borligi ayonlashdi. Ayniqsa, umumiy va qiyosiy leksikologiya, frazeologiya va leksikografiyaning ilmiy asoslaridan foydalangan holda fransuz hamda o‘zbek tillarining meteorologik lug‘ati va frazeologiyasi qiyosiy o‘rganilganda va tavsiflanganda, ularning milliy xususiyatlari yanada ochiladi.

3. Fransuz va o‘zbek xalqining moddiy hamda ma’naviy madaniyatining turli sohalariga oid so‘z boyligining leksik va tematik guruhlarini o‘rganishga hamisha qiziqish katta bo‘lgan, ammo ularning tilidagi ko‘plab

tematik va leksik-semantik guruhlar hali qiyosiy o'rganilmagan. Shunday leksik-semantik guruhlardan biri meteorologik lug'at tarkibi bo'lib, har biri o'ziga xos lingvokulturologik qirrasini bilan ajralib turadi.

4. Meteonimlar tilning fransuz va o'zbek lug'at tarkibining muhim qismini tashkil qiladi. Ushbu leksik va frazeologik guruhni tasniflash turli asoslar bo'yicha amalga oshirilishi mumkin: tematik, semantik va boshqalar. Shunday qilib, semantik printsipga muvofiq, ochiq va bulutli ob-havoni, havo harorati va atmosfera hodisalarini tavsiflovchi meteonimlar guruhlari havo harakati, atmosfera namligi va yog'ingarchilikka ko'ra ajratiladi.

5. Taqqoslanayotgan tillarda meteorologik lug'atning frazema hosil qilish imkoniyatlari faol amalga oshiriladi, buning natijasida bu birliklar inson hayotining eng xilma-xil tomonlarini (uning tashqi ko'rinishi, jismoniy holati, hissiy, intellektual, nutqi) obrazli ifodalash uchun turli sohalar, ijtimoiy munosabatlar va boshqalar asosida ishlatiladi.

6. Fransuz va o'zbek tillarida meteonimlar hamda meteonim komponentli frazeologik birliklarning o'zgarishini tahlil qilish ularning tipologiyasini ta'kidlash imkonini beradi. Bu esa, birinchi navbatda, taqqoslanayotgan tillarning strukturaviy xususiyatlariga bog'liq. Xususan, ikkala tilda ham frazeologik birliklarning tarkibi, shakli va tarkibidagi qismlarning o'ziga xos o'zgarishi mavjud.

7. Fransuz va o'zbek tillaridagi meteorologik lug'at va frazeologiyaning qiyosiy lingvomadaniy va mantiqiy tahlili shuni ta'kidlashga imkon beradiki, bu xalqlar olamining lingvistik manzarasida ham universal, ham o'ziga xos komponentlar qayd etilgan. Fransuz va o'zbek milliy meteorologik lug'ati rivojlanishining o'ziga xos tarixi mavjud. Shunga qarab, ular til darajalaridan biri sifatida lug'atda tizimli munosabatlar mavjudligini tasdiqlaydi.

8. Fransuz va o'zbek tillarining leksik tizimini diaxroniya nuqtai nazaridan o'rganish uchun til tarixining xalq tarixi va jamiyat tarixi bilan uzviy bog'liqligiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi. Fransuz va o'zbek meteorologik so'zlarining rivojlanish tarixi va zamonaviy ishlatilishini kuzatish natijasida fransuz va o'zbek tillarida yaqin meteorologik nomlar ma'lum ob-havo sharoitlarini, yog'ingarchilik, bulutlilik, tuman, shamol, elektr va optik hodisalarni bildiruvchi individual leksik mikroguruhlarning bir qismi sifatida ko'rib chiqildi.

9. Fransuz va o'zbek meteorologiya fanini lingvistik jihatdan tavsiflashda asosiy e'tibor uning shakllanish jarayoni, tarixiy rivojlanishi va zamonaviy holatiga tarixiy, semantik va stilistik jihatdan qaratildi. Natijada ularning har ikkala tilda qayd etilgan vaqtni ko'rsatish, asl yoki o'zlashtirilgan ekanini, kelib chiqishi haqida xabar, qaysi muhim birlik asosida va qaysi so'z yasaliş usuli yordamida paydo bo'lgani ko'rsatildi.

10. Meteorologik leksikaga berilgan nom paydo bo'lishi, bundan tashqari, u bilan bog'liq fonetik, morfologik, aksentologik variantlar aniqlandi, semantik tuzilishi ochib berildi, o'zgarishlari asoslandi, semantik-stilistik xususiyatlari, qo'llanish sohasi va boshqalar qayd etildi. Odamlarning kundalik hayoti, ular qanday iqtisodiyot turi bilan shug'ullanishidan qat'i nazar, ob-havo va iqlim sharoitiga bog'liqligi uchun barqaror so'z boyligiga tegishli bo'lgan bu so'z

turkumi o'z faoliyat yo'nalishida sezilarli strukturaviy va semantik o'zgarishlarni boshdan kechirgan, shuning uchun til tarixini o'rganish obyekti hisoblanadi.

11. Meteorologik voqealarning tilda aks ettirilishi, ularning strukturaviy va semantik tahliliga qarab, xalq hayotidagi o'rnini ham belgilab ko'rsatish mumkin. Qiyoslanayotgan tillarda meteorologik so'zlarning asosiy qismini o'zlashma so'zlar tashkil qiladi. Meteorologiyaga oid so'zlarning leksik va semantik turkumiga, turg'un so'z boyligiga oid asosiy so'zlar (fasllar nomlari, yog'in turlari) bilan bog'liq bo'lgan asosiy so'zlar ham, ancha keyin paydo bo'lgan so'zlar ham kiradi.

12. Meteorologiyada fasllar bo'yicha afsonalar, maqollar, iboralar, xalq prognozlari mavjud. Meteorologik leksika tarixiy va zamonaviy yasalishiga ko'ra diaxronik va sinxronik yasalishga egaligi kuzatiladi. Vazifaviy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra esa so'zlashuv va kitobiy uslubga daxldorligi, qo'llanishi jihatidan faol va nafaolliigi, onomasiologik-nominatsion tabiati bilan boshqa lug'aviy birliklardan farqlanib turadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ХАМИДОВА МУБОРАК ХАФИЗОВНА**

**СИСТЕМА И СОСТАВ МЕТЕОРОЛОГИЧЕСКОЙ ЛЕКСИКИ ВО  
ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сравнительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации на соискание учёной степени доктора  
ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

**Бухара – 2024**

Тема диссертации доктора наук зарегистрирована под номером №B2023.3.DSc/Fil1661 в Высшей аттестационной комиссии.

Докторская диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, английском, русском (резюме)) размещён на веб-странице Научного Совета (www.buxdu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

**Научный консультант:**

**Официальные оппоненты:**

**Каршибаева Улжан Давировна**  
доктор филологических наук, профессор

**Ширинова Рахима Хакимовна**  
доктор филологических наук, профессор

**Абузалова Мехринисо Кадиловна**  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Самаркандский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 20 » апрель 2024 г. в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 при Бухарском государственном университете. (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-29-14; факс: +99865221-27-07, e-mail: buxdu\_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрировано за № 427). (Адрес: 200118, город Бухара, улица М.Икбол, 11. Тел.: +99865221-25-87.)

Автореферат диссертации разослан « 05 » апрель 2024 года.

(Протокол рассылки за № 24-01 от « 05 » апрель 2024 года).



**Д.С.Ураева**  
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**З.И.Расулов**  
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

**Ф.М.Хажиева**  
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В новейшем развитии мирового языкознания особое внимание уделяется вопросам изучения сравнительно-типологических, лингвокогнитивных, лингвокультурных, лингвопрагматических особенностей проблем, связанных с вопросами коммуникологии, дискурсологии, структурологии, лексикологии и лексикографии. В частности, в различных языковых системах метеонимы – слова, обозначающие погоду, определяемые важностью сравнительного изучения того, как каждый народ выражает свои верования, знания и опыт в связи с природными явлениями, погодной средой, условиями их проживания, географическим положением, национальными традициями, сезонными обрядами. Исследования, касающиеся роли метеонимов в речи с языком, основ формирования, методологического применения, особенностей образования, выявления исторического и современного пласта, служат теоретической основой в раскрытии истории языка, факторов его развития, источников обогащения, установлении социальной значимости и научном обосновании.

В мировой лингвистике проведены широкомасштабные исследования по изучению лексики и онамастики народов мира, изучению их в сравнительном аспекте, структурно-семантических, коммуникативно-прагматических особенностей, проявляющихся в дискурсивных условиях, анализу метеорологических терминов в различных языках и культурах. Выявление лексико-семантических, национально-культурных, особенностей в языке, лингвостилистических, парадигматических, интенсивных свойств метеонимов среди различных лексических и онамастических единиц в речи, общих и дифференциальных аспектов их именования в рамках различных системных языков, параметров эквивалентности и адекватности между оригиналом и переводом в процессе перевода является одной из актуальных задач сопоставительного языкознания. Наряду с этим, определение лексико-семантических, морфологических, деривационных, стилистических особенностей слов, относящихся к метеорологической системе французского и узбекского языков, образуемых на их основе выражений и сочетаний, их места в формировании прагматического содержания текста с точки зрения сопоставительного языкознания имеет важное значение в том смысле, что позволяет научно обосновать наличие близости между различными системными языками.

“В настоящее время страны нашего региона в полной мере ощущают в себе серьезные угрозы, проявляющиеся в виде глобального потепления, аномальных погодных условий экологического дисбаланса, частых засух и пыльных бурь, бурной деградации и опустынивания земель, исчезновения биоразнообразия”,<sup>1</sup> что требует конкурентоспособности на мировом уровне в

---

<sup>1</sup> Из выступления Президента Республики Узбекистан Мирзиёева 18 октября 2023 года в Пекине на церемонии открытия международного форума “Одно пространство, один путь” и пленарном заседании на

области науки, интеллектуального потенциала, современных кадров, высоких технологий. В результате раскрывая в глубоком теоретическом аспекте происхождение, структурно-семантические особенности лексического слоя, относящегося к метеорологии лингвисты также должны обосновать, что опыт нашего народа в этом вопросе находится на уровне мировых стандартов. С этой целью выявление места метеонимов в языке и речи, основ их происхождения, перехода от народного языка к литературному языку, этнолингвистических, лингвокультурных признаков, создание лексикографических источников, осуществление классификации, анализа и исследования по лексико-семантическим признакам, изучение истории национального языка исследования по освещению лингвостилистических признаков, связанных с его использованием в стилях речи, изучение его социально-языковых особенностей, значимости, для развития областей лексикологии, ономастики, лингвопоэтики. Исследования, направленные на раскрытие лексико-семантических, морфологических, стилистических, парадигматических особенностей метеонимов открывают широкие возможности для изучения национально-языковых признаков, равно как и выявления типологических и дифференциальных особенностей языка народов мира.

Данная диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, №УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка» от 21 октября 2019 года, №УП-6097 «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года» от 29 октября 2020 года, №УП-6084 «О мерах Меры по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране» от 20 октября 2020 года, в Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков Республики Узбекистан на качественно новый уровень» от 19 мая 2021 года и других нормативно-правовых актах относительно данной сферы деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информатизированного общества и демократического государства».

**Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации<sup>2</sup>.** В

---

тему «Совместное строительство “зеленого шелкового пути” на пути к гармонии человека и природы”. // Народное слово, 2023 йил 18 октябрь. – № 258 (6952).

<sup>2</sup>Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи <https://www.disercat.com>, [www.cheloveknauk.com](http://www.cheloveknauk.com), <http://studfile.net>, [www.ilingran.ru/scholars/rumy](http://www.ilingran.ru/scholars/rumy), <http://dereksiz.org/leksiko-seman>,



